

**FARG'ONA SHAHRI URBANOFLORASIDA UCHRAYDIGAN MOMAQAYMOQ-
TARAXACUM OFFICINALE,, O'SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI.****O'rinboyev Ilxomjon Ravshanovich***Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi***Umurzakova Farangiz Baxtiyarovna***Farg'ona davlat universiteti talabasi*

Momaqaymoq Asteraceae oilasiga mansub, balandligi 10-30 sm bolgan ko'p yillik o't-o'simlik. Ildiz tizimi o'q ildizli. Asosiy ildiz nisbatan yo'g'on, odatda tik turuvchi, kam shoxlangan; ildiz bo'g'zi tukli, kamroq silliq. Barcha barglari to'pbargda to'plangan, uzunligi 10-25 sm, eni 1,5-5 sm. Gulpoyalari bir nechta. Ular bargsiz, silliq, ichi bo'sh. Barcha gullar tilsimon, ikki jinsli, sariq rangga ega. Ildizlari, poyalari va barglarida, odatda, oq sutli shirasi bo'ladi. Mevalari och qo'ng'irrang yoki qo'ng'irrang pistachalar, ularning kengaygan qismi 3-4 mm uzunlikda, yuqori yarmida oddiy dag'al tuklardan iborat popuklarga ega o'tkir bo'rtmachalar bilan qoplangan. Mart-iyun oylarida gullaydi; pistachalari gullash boshlanganidan taxminan bir oy o'tgach pishadi. Yoz davomida ko'pincha takroriy gullashi va mevalashi kuzatiladi. Tibbiyotda dorivor momaqaymoqning ildizi ishlatiladi. O'sish joyi va tarqalishi: Momaqaymoq – ko'plab apomiktik shakllarga ega bo'lgan juda polimorf tur. Ba'zi mualliflar ularni mustaqil turlar deb hisoblashadi. Biroq ularning barchasi xomashyo tayyorlashda farq qilmaydi va tibbiyotda odatdagi turi bilan bir qatorda qo'llaniladi. Dorivor momaqaymoq respublikamizning baland tog'li va cho'l hududlaridan tashqari deyarli barcha hududida o'sadi. Odatda o'simlik qoplami buzilgan jamoalarda, kuchsiz chimli tuproqlarda, ayniqsa, turar-joy yaqinida, boshqoqli dalalarda, tashlab qo'yilgan yerlarda uchraydi. Bunday sharoitda u ko'pincha katta o'lchamdagi zich o'sadigan maydonlarni hosil qiladi. Shudgorlanishi va mol boqilishi sababli buzilgan o'tloqlarda momaqaymoq unchalik ko'p uchramaydi va asosan daryo qayirlarida o'sadi.

Shuningdek, u ko'pincha yo'l bo'ylarida, yo'l bo'yidagi ariqlar bo'ylab, eroziyaga uchragan qiyaliklarda, kamroq hollarda o'rmonzorlarda, butazorlarda, daraxtlar kesilgan joylarda va o'rmon so'qmog'ida uchraydi.

Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, momaqaymoq ildizining tabiiy kimyoviy kanserogenlarga boy bo'lishi sababli onkologik kasalliklar: turli o'smalar, ko'krak saratoni, hazm qilish qilish sistemasi saratonini, oldini olishda profilaktik ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu shifobaxsh o'simlik kelajakdagi saraton hujayralarining letal holatga olib kelishda keng qo'llanilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, momaqaymoq saraton hujayralarining apoptozi (rak hujayralarini ko'payishini to'xtashi) ga olib keladi.

Momaqaymoq ildizida K vitamini mavjud va saraton kasalligiga qarshi kurashishda yordam beradigan antioksidantlarga boyligi bilan boshqa o'simliklardan ancha farq qiladi.



Momaqaymoq ildizida mavjud bo'lgan antioksidantlar tanadagi o'simta hujayralarini yo'q qilishi xususiyatiga ega. Shuningdek, ular tirik organizmdagi DNK iplarining buzilishini oldini oladi. «Iplarning buzilishi», ya'ni DNK tuzilishining buzilishi saraton rivojlanishiga olib keladi. Momaqaymoq tarkibidagi K vitamini va tarkibidagi flavonoid saraton va uning tarqalish xavfini kamaytiradi.

Bu o'simlik xom ashyoni yig'ish va uning sifati: Momaqaymoq ildizlari 2022-yilning avgust-sentyabr oylarida (kuzning boshida) barglari quriy boshlaganda yig'ib olindi. O'simlik belkuraklar bilan qazib oldik, tuproqdan tozaladik, barglarning qoldiqlari, ildiz uchi, ildiz bo'yni va ingichka yon ildizlari pichoq bilan kesib tashlandi. Shundan so'ng ildizlar sovuq suvda yaxshilab yuvib oldik va ulardan sutli shirasi ajralib chiqquncha havoda bir necha kun quritdik. Keyin ular po'stlog'idan tozalanadi, yupqa qatlam qilib qog'ozga yoki matoga havo yaxshi aylanadigan chordoqlarda yoki ayvon ostida yoyilib quritiladi. Momaqaymoq ildizlarini pechlarda yoki yaxshi shamollatiladigan quritgichlarda 60-70°C haroratda quritilishi mumkin. Quruq xom ashyoning hosildorligi 33-35% ni tashkil qiladi. Momaqaymoq deyarli hamma joyda ko'p bo'lishiga qaramay, uni yig'ish va quritishning mashaqqatligi tufayli bu o'simlikni yetishtirish ishlarini ishlab chiqish kerak. Yaxshi o'g'itlangan va shuqur yumshatilgan tuproqda yetishtirilganda uning ildizi yovvoyi o'simliklarga qaraganda ancha katta hajmga yetadi. Momaqaymoqning 2-yilgi ildizlaridan foydalanilish lozim, chunki tarkibidagi flavonoidlar aynan 2 yillik ildizlarida yaxshi to'planadi. Ular kuzda qazib olinadi.

Kimyoviy tarkibi: Momaqaymoq ildizlaridan triterpen birikmalari, P-sitosterin, sigmasterin, inulin (24% gacha), xolin, nikotin kislota, nikotinamid, qatronlar, mum, kauchuk (3% gacha) va tarkibida oleanol, palmitin, linolein, melissa va serotin kislotalarining glitseridlari bo'lgan yog'li moy ajratilgan. Momaqaymoq ildizlari, ayniqsa, kuzda yeg'ilganlarimizning juda ko'p inulinni o'z tarkibida saqlashini aniqladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lehrbuch der Botanik fur Hochschulen. Begrikkidet von E. Strasburger, F. Noll, H. Schenck A. F.W. Schimper. 35. Auflage // neubearbeitet von Peter Sittelman W.Weiler Joachim W.Kadereit Andreas Bresinsky Christian Kdrner Spektrum Akademischer Verlag Heidelberg. Berlin.
2. Takhtajan A. Flowering Plants. 2 nd Edition - Springer, 2009. -751 p.
3. Мустафаев С.М. Ботаника (анатомия, морфология, систематика) дарслик.- Тошкент: Ўзбекистон, 2002. -470б.
4. O'simliklar sistematikasidan Amaliy mashg'ulotlar: o'quv qo'llanma.- Toshkent: O'zbekiston, 2006. - 127 б.
5. Гончаров М.Ю., Повыдыш М.Н., Яковлев Г.П. Систематика цветковых растений. / Учебное пособие. - Санкт-Петербург: СпецЛит, 2015 - 176 с.